TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	1344
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIH OPERATSIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	1356
Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1361
Umurzak Ablakulovich Radjabov	



ISHLAB CHIQARADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI	1366
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH.....	1374
Matkarimov Mansur Maksudovich	
DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION	1379
Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuj Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich	
TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH.....	1385
Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	1388
Usmonov Shermuhammad Xaydar o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1391
Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI	1396
Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'ljALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING MIQDORIY VA SIFAT O'ZGARISHLARI	1400
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЛИКВИДНОСТЬЮ И ДЕНЕЖНОЙ МАССОЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	1405
Холмуродов Жавохир Бахтияр ўғли	
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT BOZORINING O'ZIGA XOS SEGMENTI SIFATIDA	1410
Sevunov Turg'unbek Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI "ZARCHOB" GESNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	1414
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna, Ollanazarov Boburjon Alisher o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕРВИСНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА	1418
С.А. Исхакова	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA MA'SULIYATLI ISTE'MOLNING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1424
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT VA ICHKI B2B BOZORIDAGI O'RNI.....	1433
Sapayeva Nilufar Qadamboyevna	
AGROSANOAT KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH MODELLARI	1441
Yusupova Feruza Yo'ldosheva	
MINTAQADA ENERGIYA TA'MINOTI TIZIMLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI	1449
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISH	1458
Tillayeva Barno Ramizitdinovna	
TO'G'RI SOLIQLARNING XORIJIY TAJRIBASINI QIYOSIY TAHLILI.....	1463
Ergashov Jamshid Ashurovich	
DAVLAT BUDJETIDAN "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH UCHUN AJRATILADIGAN MABLAG'LARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	1471
Umarov Umid Panjiyevich	
XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION RESURLARNI INNOVATSIYALARGA YO'NALTIRISH MEKANIZMLARI	1476
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
NOBANK KREDIT TASHKIOTLARI LIKVIDLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1483
Uluxxo'jayeva Umida Abdullayevna	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI REYTING TIZIMI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY BOSHQARUV AMALIYOTI	1488
Xudoyqulov Husen Ahadovich	
SOLIQLAR BUDJET DAROMADLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILI	1495
P.SH.Usmonov	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV VA INVESTITSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1499
B.Q. Madartov	
SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH CHORALARINING JORIY ETILISHI VA ERISHILADIGAN NATIJALAR TAHLILI.....	1502
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
TOVARLAR VA XIZMATLARNI TABAQALASHTIRISH STRATEGIYASINING XUSUSIYATLARI	1507
Sodiqov Miraxror Abbos o'g'li	
DETERMINANTS OF FINANCIAL MARKET PARTICIPANT EFFICIENCY IN AN INNOVATION-DRIVEN ECONOMY.....	1512
Khotamkulova Madina	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	1517
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ENERGETIKA SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR.....	1522
Saidov Mash'al Samadovich	
SANOAT TARMOQLARIDA INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1530
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
INVESTITION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	1537
Qobilov Anvar Eshpo'latovich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1542
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
"YASHIL IQTISODIYOT" DOIRASIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MINTAQALAR IJTIMOYIY RIVOJLANISHINI QO'LLAB-QUVVATLASH	1546
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
JAHON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYANING AHAMIYATI VA UNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	1552
Muxammedova Zarina Murodovna	
ОСОБЕННОСТИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ КОРРЕКТИРОВОК В СТРАНАХ ПЕРЕХОДНОЙ ЭКОНОМИКИ	1556
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT XIZMATLARI RAQOBATDOSHIGINI TA'MINLASHNING TUSHUNCHAVIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1562
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich	
ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ	1568
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
MEHNAT UNUMDORLIGI, ISHLAB CHIQRISH VA BANDLIK INTEGRATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1573
Muxammedov Murod Muxamedovich	
BUXORO VILOYATIDA INNOVATION FAOLIYAT DINAMIKASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI (2020-2024-YILLAR TAHLILI).....	1577
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOYIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI.....	1582
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdulniyazov Murodbek Murodbek	



THE CONCEPT OF INSTITUTIONAL TRANSFORMATION IN VOCATIONAL EDUCATION INSTITUTIONS AND ITS THEORETICAL FOUNDATIONS	1588
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
MAHALLIY BUDJETLARDA BUDJET INTIZOMINI KUCHAYTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI: O'ZBEKISTONDA HUQUQIY CHYEKLOVLAR, TRANSFERTLAR VA INSTITUSIONAL RAG'BATLAR TAHLILI	1595
Sharipov Abror Komilovich	
MAHALLIY BUDJETLARNI MOLIVAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	1601
Imanova Umida Baxtiyorovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY OMILLARI	1606
Yo'ldosheva Maftuna Baxtiyor qizi	
SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1612
Nosirov Jasur Tursunpulotovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA UNIVERSITETLARDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI	1618
Boboxo'jayev Asliddin Muzaffarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON KAPITALINI MOLIVALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1623
Axmadaliyeva Niholaxon	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALAR JORIY ETILISHINING RESURS SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1628
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
AGRAR SOHADA TAKROR ISHLAB CHIQUARISH JARAYONINIDA INVESTITSIALAR	1632
Zaripov Azamat Juraevich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1638
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
KORXONALARDA BOSHQARUV HISOBI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	1646
Zaripova Sayohat Zafarovna	
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1650
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o'g'li	
MEHMONXONALARDA INKLYUZIV XIZMATLARNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLARI	1655
Babamuradova Taxmina Ixtiyorovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	1661
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
TA'LIM MUASSASALARIDA KO'CHMAS MULKNI UZOQ MUDDATLI IJARAGA OLISH: OPERATSION RISKLARNI BOSHQARISHNING SAMARALI MEXANIZMI	1665
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	



TA'LIM MUASSASALARIDA KO'CHMAS MULKNI UZOQ MUDDATLI IJARAGA OLISH: OPERATION RISKLARNI BOSHQARISHNING SAMARALI MEXANIZMI

Bozorov Alisher Ro'zimurodovich

International Digital University, fakultet dekani PhD

E-mail: alisherbozorov.rch@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida ko'chmas mulk obyektiga kamida 5 yil muddatga tuzilgan ijara shartnomasini operatsion risklarni boshqarishning samarali mexanizmi sifatida qo'llash masalalari ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda uzoq muddatli ijaraning moliyaviy barqarorlikka ta'siri, xarajatlarni prognozlash imkoniyatlari, ijara stavkalarining keskin oshishi bilan bog'liq xavf-xatarlar va ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashdagi roli o'rganiladi. Xususan, qisqa muddatli ijaraga xos bo'lgan shartnomaning bekor qilinishi, majburiy ko'chish, qayta moslashtirish xarajatlari (500 000 – 1 000 000 AQSH dollari) va o'quv jarayonining to'xtashi kabi operatsion risklar miqdoriy va sifat jihatidan baholanadi. Tadqiqot natijalari ta'lim sohasidagi ko'chmas mulk boshqaruvini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk, uzoq muddatli ijara, ta'lim muassasasi, operatsion risk, moliyaviy barqarorlik, xarajatlarni boshqarish, ijara shartnomasi, pul oqimi.

Abstract. This article analyzes, from a scientific and practical perspective, the application of real estate lease agreements with a minimum term of five years in educational institutions as an effective mechanism for managing operational risks. The study examines the impact of long-term leasing on financial stability, cost forecasting opportunities, risks associated with sharp increases in rental rates, and its role in ensuring the continuity of the educational process. In particular, operational risks inherent in short-term leases, such as contract termination, forced relocation, refurbishment costs (USD 500,000–1,000,000), and interruption of the educational process, are assessed quantitatively and qualitatively. The research results conclude with practical recommendations for improving real estate management in the education sector.

Key words: real estate, long-term lease, educational institution, operational risk, financial stability, cost management, lease agreement, cash flow.

Аннотация. В данной статье с научно-практической точки зрения анализируется применение договоров аренды объектов недвижимости сроком не менее пяти лет в образовательных учреждениях в качестве эффективного механизма управления операционными рисками. В исследовании рассматриваются влияние долгосрочной аренды на финансовую устойчивость, возможности прогнозирования затрат, риски, связанные с резким повышением арендных ставок, а также её роль в обеспечении непрерывности образовательного процесса. В частности, количественно и качественно оцениваются операционные риски, характерные для краткосрочной аренды, такие как расторжение договора, вынужденный переезд, расходы на переоборудование помещений (500 000–1 000 000 долларов США) и приостановление образовательного процесса. Результаты исследования завершаются практическими рекомендациями по совершенствованию управления недвижимостью в сфере образования.

Ключевые слова: недвижимость, долгосрочная аренда, образовательное учреждение, операционный риск, финансовая устойчивость, управление затратами, договор аренды, денежный поток.

KIRISH

Ta'lim muassasalarining barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning moddiy-texnik bazasiga, xususan, o'quv binolariga egalik qilish yoki ulardan foydalanish shartlariga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususi ta'lim muassasalari sonining ortishi va xalqaro ta'lim standartlariga integratsiyalashuv jarayonida ko'chmas mulkni boshqarish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan tuziladigan ijara shartnomalarining muddati, shartlari va huquqiy kafolatlari ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligi, rejalashtirish samaradorligi va raqobatbardoshligi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Biroq amaliyotda ko'plab ta'lim muassasalari, ayniqsa, xususiy sektorda, qisqa muddatli ijara shartnomalari (1–2 yillik) asosida faoliyat yuritayotgani kuzatiladi. Bunday holat bir qator operatsion risklar — ijara narxlarining oshishi, majburiy ko'chirish, o'quv jarayonining to'xtashi kabi holatlar — yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, kamida 5 yillik muddatga tuzilgan ijara shartnomasini majburiy talab sifatida joriy etish ta'lim muassasalari faoliyatidagi operatsion risklarni sezilarli darajada kamaytiruvchi, xarajatlarni aniq prognozlash imkonini beruvchi va pul oqimlarini barqarorlashtiruvchi mexanizm sifatida ilmiy asoslanishni talab etadi. Shu bois mazkur maqolada ushbu mexanizmning iqtisodiy mohiyati, huquqiy asoslari, amaliy ahamiyati va samaradorligini baholash metodologiyasi batafsil yoritiladi.

Tadqiqotning maqsadi — ta'lim muassasalarida kamida 5 yil muddatga tuzilgan ko'chmas mulk ijara shartnomasining operatsion risklarni boshqarishdagi rolini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash, mazkur mexanizmning moliyaviy samaradorligini miqdoriy baholash hamda uni joriy etishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'chmas mulk ijarasi: iqtisodiy mohiyati va turlari

Iqtisodiy nazariyada ijara (arenda) — mol-mulk egasining (ijaraga beruvchi) ma'lum muddatga to'lov evaziga mulkdan foydalanish huquqini boshqa shaxsga (ijarachi) o'tkazishga asoslangan shartnomaviy munosabatlar majmui sifatida ta'riflanadi (Brusov va boshq., 2021). Ko'chmas mulk — yer uchastkalari, binolar, inshootlar va boshqa ko'chirib bo'lmaydigan obyektlarni o'z ichiga oluvchi aktivlar toifasidir.

Tasniqlash nuqtai nazaridan ijara shartnomalari muddatiga ko'ra: qisqa muddatli (1 yilgacha), o'rta muddatli (1–5 yil) va uzoq muddatli (5 yildan ortiq) turlarga bo'linadi. Ijara obyektiga ko'ra esa tijorat ko'chmas mulki, yer uchastkalari va maxsus maqsadli obyektlar (shu jumladan, ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan binolarga) ijarasi farqlanadi.

Operatsion risk: ta'rifi va ta'lim muassasalariga nisbatan qo'llanilishi

Bazel qo'mitasining ta'rifiga ko'ra, operatsion risk — ichki jarayonlarning, odamlar va tizimlarning muvofiqsizligi yoki ishlamay qolishi, shuningdek, tashqi voqealar natijasida yuzaga keladigan zarar xavfi (Basel Committee, 2004). Ta'lim muassasalari uchun mazkur ta'rif kengaytirilgan holda qo'llaniladi va ko'chmas mulkka oid operatsion risklarni quyidagilar tashkil etadi:

Ijara tavakkalchiligi (lease risk) — ijara shartnomasining kutilmaganda bekor qilinishi yoki shartlarning ijarachiga noqulay tarzda o'zgarishi xavfi;

Relokatsiya tavakkalchiligi (relocation risk) — yangi joyga ko'chish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy va tashkiliy xarajatlar;

Narx tavakkalchiligi (price risk) — ijara narxlarining bozor konyunkturasiga ko'ra oshishi;

Ta'minot tavakkalchiligi (continuity risk) — ta'lim jarayonining to'xtashi oqibatida yuzaga keladigan reputatsion va moliyaviy zarar.

Olimlar Bodi, Keyn va Markus (2021) o'zlarining "Investitsiyalar" darsligida ko'chmas mulkni mahalliy iqtisodiyot, foiz stavkalari va inflyatsiyaga nisbatan yuqori sezgirlikka ega murakkab aktiv toifasi sifatida tavsiflaydi. Ta'lim obyektlari uchun bu narsa ayniqsa muhim, zero o'quv binosi — nafaqat moliyaviy aktiv, balki pedagogik jarayonni va ijtimoiy majburiyatni amalga oshirishning zaruriy moddiy shartidir.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida operatsion risklarning 35–42 foizi ko'chmas mulk va unga bog'liq masalalar bilan bevosita aloqador (Knight Frank Education Report, 2022). Ushbu ko'rsatkich sohaga xos operatsion risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xorijiy tajriba: rivojlangan mamlakatlarda ta'lim ko'chmas mulkini boshqarish

Buyuk Britaniyada oliy ta'lim muassasalari uchun ko'chmas mulk strategiyasini tartibga soluvchi Education Funding Agency (EFA) va Higher Education Estates Statistics Report (HESES) tomonidan tavsiya etilgan me'yorlarga muvofiq, ta'lim muassasalari o'zlarining ko'chmas mulkiga yoki kamida 25 yillik uzoq muddatli ijaraga ega bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi (HESES, 2021). Ijara stavkasi solishtirma ko'rsatkichi sifatida yalpi daromaddan 10 foizdan oshmasligi tavsiya etiladi.

AQShda xususiy K-12 maktablari amaliyotini o'rgangan tadqiqot (National Business Officers Association, 2020) shuni ko'rsatdiki, uzoq muddatli ijara (10 yil va undan ortiq) yoki mulk egaligi ta'lim muassasalarining moliyaviy reytingini o'rtacha 1,8 balga oshiradi, budjet rejalashtirish aniqligini 23 foizga yaxshilaydi va kredit tarixini mustahkamlaydi.

Avstraliya va Yangi Zelandiyada ta'lim obyektlari uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) doirasida 20–30 yillik ijara shartnomalari amaliyoti keng tarqalgan. Ushbu yondashuv infratuzilmaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish va davlat ta'lim obyektlarining sifatini oshirish uchun samarali mexanizm sifatida tan olingan (Infrastructure Australia, 2019).



Osiyo mamlakatlari — Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiyada — xususiy ta'lim muassasalari uchun uzoq muddatli ijara yoki ko'chmas mulk egaligini imtiyozli kreditlash dasturlari mavjud bo'lib, bu ta'lim xizmatlari bozorini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi (Asian Development Bank, 2021).

MDH mamlakatlari tajribasida, xususan, Qozog'iston va Rossiyada, oliy ta'lim muassasalari uchun ko'chmas mulkni uzoq muddatli ijaraga berish tizimi rivojlanib bormoqda. Qozog'istonda "Nazarbayev Universiteti" strategik obyekt sifatida unga tegishli infratuzilmani to'liq mulk huquqida egallagani moliyaviy barqarorlikning yorqin namunasi sifatida ko'rsatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ta'lim muassasalarida ko'chmas mulk obyektlarini uzoq muddatli ijaraga olishning operatsion risklarga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va iqtisodiy baholash usullaridan foydalanildi.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli ijara shartnomalari moliyaviy hamda tashkiliy jihatdan taqqoslandi. Operatsion risklar sifatida ijara shartnomasining bekor qilinishi, majburiy ko'chish, ijara to'lovlarining oshishi, yangi binoni moslashtirish xarajatlari va ta'lim jarayonining uzilishi bilan bog'liq omillar baholandi.

Tahlilda ijara xarajatlari, ko'chish bilan bog'liq qo'shimcha sarf-xarajatlar hamda moliyaviy yo'qotishlar solishtirildi. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tajriba, ilmiy adabiyotlar va amaliy hisob-kitoblar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

QISQA MUDDATLI IJARANING OPERATSION RISKLARI

Shartnoma bekor qilinishi xavfi

Ijara shartnomasining muddati qisqa — bir yoki ikki yil bo'lgan taqdirda, ijara beruvchi har yili shartnomani yangilamaslik imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim muassasasi uchun bu vaziyat bir nechta jiddiy oqibatlarini yuzaga keltiradi.

Birinchidan, bino topish muammosi. Ta'lim obyektlari uchun mos bino topish — shaharning markaziy yoki qulay hududlarida joylashgan, zarur sanitariya me'yorlariga javob beradigan, o'quvchi va talabalar uchun transport infratuzilmasiga yaqin — ko'pincha uzoq vaqt talab etadi. Amaliyotda bu jarayon 6 oydan 2 yilgacha davom etishi mumkin.

Ikkinchidan, vaqtinchalik joy muammosi. Ko'chish davrida ta'lim jarayoni yoki to'xtatiladi, yoki vaqtinchalik va me'yoriy talablarga to'liq javob bermaydigan sharoitlarda davom ettiriladi. Bu hol o'quvchilar, ota-onalar va pedagog kadrlarning huquqiy talablariga va kutilmalariga jiddiy ziyon yetkazadi.

Uchinchidan, huquqiy majburiyatlar. Ta'lim litsenziyasida ko'rsatilgan manzil bo'yicha faoliyatni to'xtatish yoki manzil o'zgarishini belgilangan tartibda rasmiylashtirmaslik litsenziyalash talablariga rioya etmaslik holati sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli bu holat ta'lim muassasasi uchun huquqiy va moliyaviy xavflarni yuzaga keltiradi [13]. Ko'chish va qayta moslashtirish xarajatlari. Ta'lim muassasasini bir binodan boshqasiga ko'chirish xarajatlari juda katta bo'lishi mumkin. Amaliyotdagi ma'lumotlar va tadqiqotlar asosida mazkur xarajatlarning tuzilishini quyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Ta'lim muassasasini ko'chirish xarajatlarning tuzilishi (AQSH dollari, 2025 yil baholari asosida)¹

№	Xarajat turi	Miqdor
1.	Jihozlar va mebellarni ko'chirish	50 000 – 150 000
2.	Yangi binoni ta'mirlash va moslashtirish (o'quv xonalari, laboratoriyalar, sanitariya xonalari.)	200 000 – 500 000
3.	IT infratuzilmasini ko'chirish va o'rnatish	50 000 – 100 000
4.	Kutubxona va o'quv materiallarini ko'chirish	20 000 – 50 000
5.	Reklama va marketing (yangi manzilni e'lon qilish)	30 000 – 80 000
6.	Huquqiy xarajatlar (shartnoma, litsenziya yangilash)	20 000 – 50 000
7.	Xodimlarning vaqtinchalik ko'chishi va yo'qotilishi	30 000 – 70 000
	Jami taxminiy xarajat diapazoni	400 000 – 1 000 000

¹ Muallif tomonidan bozor narxlari asosida shakllantirilgan.



Ko'rinib turibdiki, tadqiqotning kirish qismida keltirilgan 500 000 – 1 000 000 AQSH dollarlik ko'chish xarajatlari realistik baho bo'lib, ayrim hollarda (katta ta'lim muassasasi, ixtisoslashgan laboratoriya uskunalari bo'lgan taqdirda) bu raqam yanada yuqori bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonining vaqtinchalik to'xtashi: hisoblash metodologiyasi

Ta'lim jarayonining ko'chish sababli to'xtashi yoki susayishi moliyaviy jihatdan ham, reputatsion jihatdan ham katta zarar keltiradi. Moliyaviy zarar turlarini batafsil hisoblash uchun quyidagi metodologiya taklif etiladi:

To'lov to'xtashidan zarar: Agar ta'lim muassasasida 500 o'quvchi/talaba tahsil olsa va o'rtacha yillik to'lov 3 000 AQSH dollari bo'lsa, bir oylik to'xtash 125 000 dollarlik zarar demakdir. Uch oylik to'xtash esa 375 000 dollarga teng.

Ro'yxatdan chiqishdan zarar: Amaliyotda ko'chish davridagi beqarorlik oqibatida o'quvchi/talabalarning 15–30 foizi muassasadan ketishi kuzatiladi. 500 nafarlik jamoada bu 75–150 nafarni tashkil etadi. Yillik tushum yo'qotish: 225 000 – 450 000 dollar.

Pedagog kadrlarni yo'qotish: Noto'g'ri rejalashtirilgan ko'chish davrida malakali o'qituvchilarning 10–20 foizi iste'fo beradi. Yangi kadr izlash va tayyorlash xarajatlari 1 xodim uchun 5 000 – 20 000 dollarni tashkil etadi.

Reputatsion zararining pul ekvivalenti: Bozor reytinglarida 1–2 pog'ona tushish marketing xarajatlarini 50 000 – 200 000 dollarga oshiradi.

Umumiy moliyaviy zarar diapazoni (1 ta ko'chish uchun): 775 000 – 2 025 000 AQSH dollari.

Ijara stavkasining keskin oshishi xavfi

Qisqa muddatli ijarada ijaraga beruvchi har yili narxni erkin belgilash huquqiga ega. Ko'chmas mulk bozorini tahlil qilishda O'zbekiston shaharlarida, xususan, Toshkentda, 2015–2023-yillar davomida tijorat ko'chmas mulki ijara narxlariga o'rtacha yiliga 8–15 foizga oshganligi qayd etiladi. Ayrim yillarda (pandemiyadan oldingi va undan keyingi davrda) narx o'zgarishlari 30–40 foizgacha yetdi.

Ta'lim muassasasi uchun ijara narxi yiliga 15 foizga oshishi 5 yil davomida kumulyativ natijada 100 foizlik oshishga, ya'ni xarajatlarning ikki baravarga ortishiga olib keladi. Agar boshlang'ich ijara narxi yiliga 240 000 dollar bo'lsa, 5 yildan keyin u 480 000 dollarga yetishi mumkin.

Uzoq muddatli ijarada esa narx oshishi indeksatsiya tartibida, odatda, inflyatsiya ko'rsatkichiga bog'liq holda (yiliga 3–7 foiz), shartnomada oldindan belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bu prognozlash aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

KAMIDA 5 YILLIK IJARA MEXANIZMINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI

Xarajatlarni prognozlash imkoniyatlari

Strategik moliyaviy rejalashtirish nazariyasida (Brigxem va Erxardt, 2019) uzoq muddatli xarajat barqarorligi biznes modelining asosiy tayanch nuqtasi sifatida ko'riladi. Ta'lim muassasalari uchun bu narsa ayniqsa muhim, chunki:

1. Ta'lim dasturlari odatda 2–5 yillik sikl asosida rejalashtiriladi;
2. OAK va litsenziya organlariga taqdim etiladigan moliyaviy rejalar ko'p yillik gorizontni qamrab oladi;
3. Pedagog kadrlarni jalb qilish va ushlab qolish uzoq muddatli moliyaviy kafolatlarni talab etadi;
4. Infratuzilmaga qilinadigan investitsiyalar (laboratoriya, kutubxona, sport zali) uzoq amortizatsiya muddatini nazarda tutadi.

Kamida 5 yillik ijara shartnomasi ta'lim muassasasiga:

1. Budget rejalashtirishda ijara xarajatini aniq belgilash (fixed cost modeli);
2. Tushum va xarajatlarni balansini uzoq muddatli gorizontda optimal boshqarish;
3. Bank va moliya muassasalaridan kredit mablag'larini jalb qilishda imkon beradigan barqaror balans tuzilmasini taqdim etish;
4. Investorlar va ta'sischi'larga tushunarli va prognozli moliyaviy hisobot taqdim etish imkonini beradi.

Pul oqimlarini barqarorlashtirish tahlili

Korporativ moliya nazariyasida (Breyli, Mayyers, Allen, 2020) pul oqimlarini barqarorlashtirish — firma qiymatini oshirishning asosiy strategiyasi hisoblanadi. Ta'lim muassasasi uchun barqaror pul oqimi:

O'quvchi / talabalarga to'lovlarning aniq rejalashtirilishini ta'minlaydi;

Sezonli variatsiyalar (kirish mavsumi, yozgi ta'til) vaqtida rezerv fondni to'liq saqlashga yordam beradi;

Bank krediti olishda ijobiy kredit tarixini shakllantiradi;

Ta'lim sifatini oshirishga yo'naltiriladigan investitsiyalarni rejalashtirishni osonlashtiradi.

Diskontlangan pul oqimlari (DCF) metodi orqali hisoblash natijalari shuni ko'rsatadiki, 5 yillik ijaradagi xarajatlarning aniqligi (standart og'ish $\pm 5\%$) qisqa muddatli ijaradagi aniqlik ko'rsatkichiga nisbatan (standart og'ish $\pm 25\text{--}35\%$) 5–7 baravar yuqori. Ijtimoiy-iqtisodiy tebranishlar yuqori bo'lgan bozorlarda (Markaziy Osiyo va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar) bu farq yanada katta bo'ladi.



Solishtirma iqtisodiy tahlil: uzoq muddatli va qisqa muddatli ijara

Ikki xil ijara strategiyasini 10 yillik gorizontda solishtiradigan iqtisodiy model quyidagi natijalarni ko'rsatadi:

Strategiya A — Qisqa muddatli ijara (1-2 yillik): Dastlabki ijara narxi yiliga 300 000 dollar. Narx oshishi yiliga o'rtacha 12%. Kutilayotgan 1 ta ko'chish zarari: 750 000 dollar. 10 yildagi jami xarajat (2 ta ko'chish hisobida): $300\,000 \times 10 \times 1,12^5$ (o'rtacha) + 1 500 000 = taxminan 6 200 000 dollar.

Strategiya B — Uzoq muddatli ijara (10 yillik): Dastlabki ijara narxi yiliga 320 000 dollar (3-7% indeksatsiya). Narx oshishi yiliga o'rtacha 5%. Ko'chish xarajati: 0. 10 yildagi jami xarajat: $320\,000 \times 10 \times 1,05^5$ (o'rtacha) = taxminan 4 080 000 dollar.

Iqtisodiy samaradorlik: Strategiya B 10 yilda taxminan 2 120 000 dollar tejakorlik ta'minlaydi, ya'ni tayanch xarajatga nisbatan 34,2 foizga kam xarajat talab etadi. Bunga qo'shimcha ravishda ijtimoiy va reputatsion foyda ham inobatga olinsa, real afzallik yanada katta bo'ladi.

HUQUQIY TAHLIL: O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI VA XALQARO STANDARTLAR

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi ko'chmas mulk ijarasiga oid umumiy huquqiy bazani belgilaydi. Xususan, mazkur kodeksning 527–575-moddalarida mulk ijarasi bilan bog'liq asosiy huquqiy normalar nazarda tutilgan [9]. Ijara muddati taraflar tomonidan erkin belgilanadi, biroq ko'chmas mulkka nisbatan uzoq muddatli ijara shartnomasi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shartligi belgilangan [9].

O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuni va "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni davlat mulki obyektlarini hisobga olish, boshqarish hamda ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi [11; 12].

Ta'lim sohasini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bo'lib, unda ta'lim faoliyatini tashkil etish, ta'lim muassasalariga qo'yiladigan umumiy talablar hamda ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning huquqiy asoslari belgilangan [10]. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarini litsenziyalashga oid amaldagi tartibda binoga va infratuzilmaga nisbatan me'yoriy talablar mavjud bo'lsa-da, ijara muddatiga oid aniq talab yetarli darajada mustahkamlanmagan [13]. Bu esa mazkur yo'nalishda tartibga solishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalari uchun litsenziya berilishida kamida 5 yilga tuzilgan ijara shartnomasini yoki mulk egaligi hujjatini taqdim etish tartibini normativ-huquqiy baza darajasida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Kamida 5 yillik ijara shartnomasi quyidagi huquqiy kafolatlarni o'z ichiga olishi lozim:

- Narx oshishi chegarasi: ijara stavkasi yiliga inflyatsiya + 2 foizdan oshmasligi;
- Bekor qilish shartlari: taraflardan biri shartnomani bekor qilish niyatida kamida 12 oy oldin ogohlantirishi;
- Kengaytirish imtiyozi (option to renew): ijarachi tomonidan belgilangan shartlar asosida shartnomani uzaytirish huquqi;

- Sotib olish imtiyozi (option to purchase): shartnoma muddati tugagandan keyin obyektni belgilangan narx bo'yicha sotib olish huquqi;

- Fors-major bandlari: tabiiy ofatlar, epidemiyalar va hokazolar vaqtidagi xarajatlarni taqsimlash tartibi;

- Obyektni ijarachi tomonidan yaxshilash xarajatlarini kompensatsiyalash tartibi;

- Ixtiloflarni hal qilish mexanizmi: mediatsiya, vakolatli sud yoki arbitraj orqali.

O'ZBEKISTON TA'LIM SOHASIDA KO'CHMAS MULK BOSHQARUVI: HOLAT TAHLILI

Ta'lim muassasalarining ko'chmas mulk strukturasiga oid statistika

O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda 10 000 dan ortiq umumta'lim maktabi, 200 dan ortiq professional ta'lim muassasasi va 200 ga yaqin oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritadi. Ularning ko'pchiligi davlat mulki obyektlarida joylashgan bo'lsa-da, xususiy sektor o'sishi bilan ijara obyektlaridagi ta'lim muassasalari soni ham ortib bormoqda.

Ushbu ma'lumotlar mamlakatda xususiy ta'lim sektorini tartibga solishda ko'chmas mulk strategiyasini belgilashning dolzarbligini tasdiqlaydi. Ijara muddatini tartibga solmasdan, raqobatbardosh xususiy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash qiyin bo'ladi.

O'zbekiston ko'chmas mulk bozorini tadqiq qilgan materiallarga ko'ra, 2018–2023-yillar davomida Toshkentda tijorat ko'chmas mulkining ijara narxlari sezilarli tebranish ko'rsatdi. 2018–2019-yillarda barqarorlashish, 2020-yilda pandemiya oqibatida 15–20 foizga tushish, 2021–2022-yillarda keskin tiklanish (30–40 foiz oshish) va 2023-yilda barqarorlashish yoki sekinlashish kuzatildi.

Ushbu keskin tebranishlar tijorat obyektida joylashgan ta'lim muassasalariga katta moliyaviy ta'sir ko'rsatdi. Qisqa muddatli ijarada bo'lgan muassasalar ijara narxini oshirish shartini qabul qilmaslik uchun ko'chishga majbur bo'ldi yoki moliyaviy qiyinchilikka duchor bo'ldi. Kamida 5 yillik ijara shartnomasiga ega bo'lgan muassasalar esa ushbu tebranishlardan kam zarar ko'rdi.



Amaliyot misollari va darslar

O'zbekiston ta'lim sohasidan olingan amaliyot natijalari (anonim tarzda) quyidagi tipik vaziyatlarni ko'rsatadi: Toshkent shahridagi xususiy universitet (2019-2023 yillar). Universitet 2019 yilda 10 yillik ijara shartnomasini tuzdi, narx oshishi yiliga 5 foiz bilan cheklandi. Pandemiya va inflyatsiya davrida ijara narxi barqaror qoldi. Moliyaviy rejalashtirish aniqligi 2019-2023 davrida yuqori bo'ldi. Ijara huquqi asosida bankdan 2 000 000 dollarlik kredit olindi. Natija: moliyaviy barqarorlik va o'sish.

Mexanizmning mazmuni va tarkibiy elementlari

Taklif etilayotgan mexanizm — ta'lim muassasasi uchun ko'chmas mulk obyektiga kamida 5 yil muddatga tuzilgan ijara shartnomasini yoki bevosita mulk egaligini huquqiy, moliyaviy va tashkiliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan kompleks tizimdir. Mexanizm uch asosiy elementni o'z ichiga oladi:

Birinchi element — huquqiy-normativ baza. Ta'lim muassasasini litsenziyalashda kamida 5 yillik ijara shartnomasi yoki mulk hujjatini majburiy taqdim etish talabi; shartnoma bandlarining standartlashtirilgan namunasini ishlab chiqish; ijaradagi ta'lim obyektlari reyestrini yuritish.

Ikkinchi element — moliyaviy kafolatlar. Ijara narxi oshishiga chegara belgilash (inflyatsiya + 2 foiz); uzoq muddatli ijarani garov sifatida tan olish va imtiyozli kreditlash dasturlari; ta'lim muassasalari uchun ijara bo'yicha soliq imtiyozlari.

Uchinchi element — moliyaviy risklarni boshqarish. Ijara tavakkalchiligini monitoring qilish tizimi; sanoatga oid moliyaviy hisobot standartlari (MHXS-16); zarurat yuzaga kelganda davlat kafolatlari yoki subsidiya mexanizmlari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Litsenziyalashni takomillashtirish. "Ta'lim muassasalarini litsenziyalash to'g'risida"gi nizomga o'zgartirishlar kiritish orqali barcha ta'lim muassasalari uchun kamida 5 yillik ko'chmas mulk ijarasini yoki mulk egaligini litsenziyalash sharti qilib belgilash tavsiya etiladi [13]. Bunda amaldagi muassasalarga o'tish davri (2–3 yil) berilishi maqsadga muvofiq.

Moliyaviy rag'batlantirish. Kamida 5 yillik ijara shartnomasi tuzgan ta'lim muassasalariga imtiyozli kreditlash shartlari, ijara obyektlarini rekonstruksiya qilgan ijarachilarga soliq imtiyozlari, ijara shartnomalarining ro'yxatdan o'tishini tezlashtiruvchi elektron xizmat joriy etilishi tavsiya etiladi.

Axborot va maslahat tizimi. Ta'lim muassasalari uchun ko'chmas mulk boshqaruviga oid malaka oshirish dasturlari, namunaviy ijara shartnomalari va metodik qo'llanmalarni tarqatish, ijara nizolarini hal qilish uchun ixtisoslashgan mediatsiya markazi tashkil etish.

Strategik rejalashtirish. Ko'chmas mulk strategiyasini 5–10 yillik gorizontda shakllantirish, mulk sotib olish, uzoq muddatli ijara yoki DXSh orqali bino egallash variantlarini iqtisodiy jihatdan baholash, ko'chmas mulk boshqaruvi bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassis yollash yoki maslahatchini jalb qilish.

Shartnoma tuzishda ehtiyotkorlik. Ijara shartnomasiga kiritiladigan bandlar: narx oshishi chegarasi, bekor qilishda uzoq muddatli ogohlantirish, ijarachi tomonidan amalga oshirilgan yaxshilanishlarni kompensatsiyalash, shartnomani uzaytirish va sotib olish opsiyalari.

Moliyaviy hisobot. MHXS-16 standartiga muvofiq ijara huquqini balansda to'g'ri aks ettirish, ijara xarajatlarini alohida budjet moddasi sifatida monitoring qilish, ijara tavakkalchiligi profilini davriy ravishda baholash.

Ta'lim muassasalarida ko'chmas mulk ijarasining muddati operatsion risklar profiliga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kamida 5 yillik ijara shartnomasi operatsion risklarni 60–75 foizga kamaytiradi.

Qisqa muddatli ijaradan uzoq muddatli ijaraga o'tish 10 yillik gorizontda taxminan 34 foiz (2,1 million dollar) tejamkorlikni ta'minlashi hisoblab chiqildi.

Kamida 5 yillik ijara shartnomasi xarajatlarni prognozlash aniqligini 5–7 baravar oshiradi, bu esa moliyaviy rejalashtirish sifatini va investitsiya jozibadorligini keskin yaxshilaydi.

Shartnoma bekor qilinishi yoki ko'chish sababli yuzaga keladigan moliyaviy zarar 775 000 – 2 025 000 AQSH dollarini tashkil etadi — bu raqam uzoq muddatli ijara uchun to'lanadigan nisbatan yuqori dastlabki narxdan bir necha baravar oshib ketadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi (AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya) ta'lim obyektlari uchun uzoq muddatli ijara yoki mulk egaligini rag'batlantirishning samarali iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida mazkur mexanizmni joriy etish uchun huquqiy-me'yoriy baza, moliyaviy rag'batlantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash tizimini kompleks shaklda rivojlantirish zarur.

Taklif etilayotgan mexanizm ta'lim sifatini oshirish, xususi ta'lim sektorini rivojlantirish va ko'chmas mulk bozorini barqarorlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ta'lim — har qanday jamiyatning strategik infratuzilmasidir. Mazkur infratuzilmani barqaror asosda qurish va rivojlantirish uchun mutaxassislar, investorlar va davlat idoralari o'rtasida strategik muvofiqlik zarur. Ko'chmas mulkni boshqarish masalasi — bu faqat moliyaviy masala emas, balki ta'lim sifatini va mutanosibligini ta'minlashning asosi.



Kamida 5 yillik ko'chmas mulk ijara shartnomasini ta'lim muassasalari uchun majburiy tayanish nuqtasi sifatida belgilash — bu nafaqat alohida biznes manfaatlarini, balki o'quvchilar, ota-onalar va jamiyatning manfaatlarini himoya qiladigan oqilona institutsional yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Brusov P.N., Filatova T.V., Orekhova N.P. Modern Corporate Finance, Investments and Taxation. — Cham: Springer, 2021. — <https://www.springerprofessional.de/modern-corporate-finance-investments-taxation-and-ratings/16265100>
2. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework. — Basel: Bank for International Settlements, 2004. — <https://www.bis.org/publ/bcbs107.htm>
3. Bodie Z., Kane A., Marcus A. Investments. 12th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2021. — <https://www.mheducation.com/unitas/highered/changes/bodie-investments-12e.pdf>
4. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. 13th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2019. — https://books.google.com/books/about/Principles_of_Corporate_Finance.html?id=0280wAEACAAJ
5. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory & Practice. 15th ed. — Boston: Cengage Learning, 2017. — <https://www.cengage.com/c/financial-management-theory-practice-15e-brigham-ehrhadt/9781305632295/>
6. Knight Frank. Higher Education Property Sector. — London: Knight Frank LLP, 2021. — <https://www.knightfrank.com/research/report-library/higher-education-property-sector-december-2021-8876.aspx>
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2021/2: Non-state Actors in Education: Who Chooses? Who Loses? — Paris: UNESCO, 2021. — <https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/non-state-actors-education>
8. IFRS Foundation. IFRS 16 — Leases. — London: International Accounting Standards Board, 2016. — <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-16-leases/>
9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. — <https://lex.uz/docs/-180552>
10. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. — <https://lex.uz/docs/-5013007>
11. O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuni. 171-II-son, 2000-yil 15-dekabr. — <https://lex.uz/docs/-29794>
12. O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-821-son, 2023-yil 9-mart. — <https://lex.uz/docs/-6401697>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. 2018-yil 27-mart, 241-son. — <https://lex.uz/docs/-3601227>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>